

YOZMA NUTQ SAVODXONLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mirzayeva Ma'mura Erkin qizi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozma nutq savodxonligining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda o'quvchilarda yozma savodxonlikni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, tilshunos va metodist olimlarning qarashlari asosida yozma nutq savodxonligini shakllantirishning muhim jihatlari tahlil qilinadi. O'quvchilarning yozma nutqida uchraydigan asosiy muammolar, ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan pedagogik metodlar, zamonaviy texnologiyalar hamda differensial yondashuvning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *yoza nutq savodxonligi, nutq madaniyati, orfografik savodxonlik, punktuatsiya, metodika, pedagogik texnologiyalar.*

ПИСЬМЕННАЯ РЕЧЕВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И МЕТОДЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Мирзаева Маъмура Эркин кизи

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы письменной речевой грамотности, её структурные компоненты, а также вопросы развития письменной грамотности у учащихся. На основе взглядов лингвистов и методистов анализируются важные аспекты формирования письменной речевой грамотности. Выявляются основные проблемы, встречающиеся в письменной речи учащихся, а также научно и теоретически обосновывается значение педагогических методов, современных образовательных технологий и дифференцированного подхода в их преодолении.*

Ключевые слова: *письменная речевая грамотность, культура речи, орфографическая грамотность, пунктуация, методика, педагогические технологии.*

WRITTEN SPEECH LITERACY AND METHODS OF ITS DEVELOPMENT

Mirzayeva Ma'mura Erkin qizi

Abstract. *This article examines the theoretical foundations of written speech literacy, its structural components, and the issues related to the development of written literacy among students. It also analyzes the key aspects of forming written speech literacy based on the views of linguists and methodologists. The main problems observed in students' written speech are identified, and the importance of pedagogical methods, modern educational technologies, and a differentiated approach in overcoming these challenges is substantiated from a scientific and theoretical perspective.*

Keywords: *written speech literacy, speech culture, orthographic literacy, punctuation, methodology, pedagogical technologies.*

Bugungi globallashuv jarayonida til madaniyati va savodxonlik masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning yozma nutq madaniyati ularning fikrlash darajasi, bilim saviyasi hamda kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Shunga qaramay, hozirgi kunda o'quvchilar yozma nutqida imlo qoidalariga to'liq rioya qilmaslik, tinish belgilaridan etarli darajada foydalanmaslik, matnni mantiqiy jihatdan izchil tuza olmaslik kabi muammolar tez-tez uchrab turadi. Mazkur holat ta'lim tizimida yozma nutq savodxonligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Shu bois tilshunoslik va pedagogika sohasida yozma nutqni rivojlantirish metodikasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash yozma nutq savodxonligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda nutq ikki asosiy shaklga – og'zaki va yozma nutqqa ajratiladi. Yozma nutq inson tafakkurining nisbatan murakkab shakli bo'lib, unda fikr aniq,

mantiqiy va tizimli tarzda ifodalanishi talab etiladi. Yozma nutq savodxonligi deganda shaxsning o'z fikrini yozma shaklda adabiy til me'yorlariga muvofiq, grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqan izchil va uslubiy jihatdan aniq ifoda eta olish qobiliyati tushuniladi. Yozma nutq insonning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Chunki yozma nutq orqali shaxsning tafakkur darajasi, bilim doirasi va mantiqiy fikrlash qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanadi [1].

O'zbek tilshunosligida yozma nutq va nutq madaniyati masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev yozma nutqni adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish asosida shakllanadigan nutq shakli sifatida talqin qiladi [1]. R.Qo'ng'urov esa nutq madaniyati haqidagi tadqiqotlarida yozma nutqda aniqlik, qisqalik, mantiqiylik va ta'sirchanlik muhim mezonlar ekanligini ta'kidlaydi [2].

Masalan, quyidagi ikki gapni taqqoslaylik:

Noto'g'ri variant:	<i>O'quvchilar darsda juda ko'p narsalarni o'rganishadi va ular juda yaxshi bilim olishadi.</i>
To'g'ri va stilistik jihatdan aniq variant:	<i>Dars jarayonida o'quvchilar yangi bilimlarni egallab, o'z bilim doirasini kengaytiradilar.</i>

Ikkinchi gapda fikr aniqroq, qisqaroq va mantiqan mukammalroq ifodalangan.

N.Mahmudovning fikriga ko'ra, nutq madaniyati til birliklaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish orqali nutqning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [3]. Demak, yozma nutq savodxonligi nafaqat imlo qoidalarini bilish, balki fikrni mantiqan to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

O'quvchilarda yozma nutq savodxonligini shakllantirish bir necha muhim komponentlarning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Metodist olimlar bu komponentlarni quyidagi guruhlarga ajratadilar [5]:

Orfografik savodxonlik. So'zlarni adabiy til imlo qoidalariga muvofiq yozish ko'nikmasidir. Bu savodxonlik turi yozma nutqning asosiy poydevori hisoblanadi. Masalan: xayot/hayot, o'lim/ulim, mashxur/mashhur. Orfografik xatolar matnning

umumiy savodxonlik darajasini pasaytiradi va muallifning bilim darajasi haqida salbiy tasavvur uyg'otadi.

Punktuatsion savodxonlik. Matn mazmuni va sintaktik tuzilishiga muvofiq tinish belgilarini to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Punktuatsiya matnning mantiqiy tuzilishini aniqlashtiradi. Masalan: *O'qituvchi dedi o'quvchilar kitoblarni oching./ O'qituvchi dedi: "O'quvchilar, kitoblarni oching"*. Bu erda tinish belgilarining to'g'ri qo'llanishi gapning sintaktik tuzilishini aniq ko'rsatadi.

Grammatik savodxonlik. Gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri qurish, so'zlarni o'zaro moslashtirish va sintaktik bog'lanishlarni to'g'ri qo'llashni anglatadi. Masalan: *Men do'stim bilan ko'rishadi. / Men do'stim bilan ko'rishaman.* Bu erda kesim va ega o'rtasidagi grammatik moslik tiklandi.

Leksik savodxonlik. So'z boyligidan samarali foydalanish, so'zlarning ma'no nozikliklarini hisobga olgan holda qo'llay bilish qobiliyatidir. Masalan: *Bola ho'kizga taom berdi. / Bola ho'kizgaga emish berdi.*

Stilistik savodxonlik. Matnning maqsadi va kommunikativ vaziyatiga mos uslubni tanlash hamda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishdir. Masalan: *Bu usul juda zo'r natija beradi./ Mazkur metod o'quvchilarning yozma ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.*

Mazkur komponentlarning uyg'un rivoji o'quvchilarda mazmunli, mantiqan izchil va ta'sirchan yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. **Biroq bu komponentlar o'z-o'zidan shakllanmaydi; ularni o'quvchilarda tizimli ravishda rivojlantirish uchun samarali metodik yondashuvlardan foydalanish zarur.** Shu bois yozma nutq savodxonligini rivojlantirishda turli pedagogik metod va yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda yozma nutq savodxonligini rivojlantirishda turli metod va yondashuvlardan foydalanish zarur. Metodist olimlar yozma nutqni rivojlantirishda nazariy bilim bilan amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi muhim ekanligini ta'kidlaydilar [6].

Yozma nutqni rivojlantirishda quyidagi amaliy mashg'ulotlar samarali hisoblanadi: diktantlar; insho yozish; hikoya va bayon yozdirish; mikro matnlar

tuzdirish;matn tahlili mashqlari. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning imlo, grammatik va stilistik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Ko'rgazmali metod. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish orqali o'quvchilar ma'lumotni nafaqat eshitish, balki ko'rish orqali ham qabul qiladilar. Bu esa bilimlarning xotirada uzoqroq saqlanishiga yordam beradi.

Differensial yondashuv. Har bir o'quvchining bilim darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda topshiriqlar berish ham yozma savodxonlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilib, ularning xatolarini aniqlashi va individual tavsiyalar berishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Hozirgi kunda yozma nutqni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham keng qo'llanilmoqda. Kompyuter dasturlari, elektron matn muharrirlari, onlayn testlar hamda multimedia vositalari o'quvchilarning yozma ko'nikmalarini interaktiv tarzda rivojlantirish imkonini beradi [4].

Bunday texnologiyalar o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Yozma nutq savodxonligi inson tafakkurining tashqi ifodasi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham psixolingvistika tadqiqotlarida yozma nutq tafakkur, til va kommunikatsiya o'rtasidagi murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Demak, yozma nutqni rivojlantirish faqat imlo qoidalarini o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, til birliklaridan ongli foydalanish hamda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutq savodxonligi o'quvchilarning umumiy til madaniyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Yozma nutq orqali shaxs o'z fikrini aniq, mantiqiy va ta'sirchan tarzda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilarda yozma savodxonlikni shakllantirish jarayonida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, differensial yondashuvni amalga oshirish hamda muntazam amaliy mashqlar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yozma nutq savodxonligini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim

vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
2. Qo'ng'urov R., va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Mahmudov N., va boshqalar. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon, 2007.
4. Alimov A. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Bobojonova M. O'quvchilarda yozma savodxonlikni shakllantirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
6. Karimov F. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
7. Raximova G. O'quvchilarning yozma ko'nikmalarini oshirishda interaktiv metodlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
8. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.